

BUXORO AMIRI NASRULLOHXON DAVRIDA AMIRLIKDAGI SUV TAQSIMOTI VA MIROBLAR FAOLIYATIGA BIR NAZAR

Jalilov Abdumaruf Abduraupovich

BuxDU 1-bosqich magistranti

ANNOTATSIYA

Ushbu maqolada Amir Nasrulloxon davrida Buxoro amirligida suv taqsimoti tizimi va miroblar institutining faoliyati tarixiy manbalar asosida yoritiladi. XIX asrda agrar jamiyat bo'lgan amirlikda suv inshootlari dehqonchilikning asosi bo'lgan. Suv resurslarining samarali taqsimoti va ushbu jarayonda miroblarning muhim roli, ularning vakolatlari va javobgarligi tafsilotli tahlil qilingan.

Tadqiqotda tarixiy, tavsifiy, tahliliy va solishtirma metodlar qo'llanilib, suv inshootlarining ishslash tizimi va suvdan foydalanish tartibi asosida amirlidagi agrar boshqaruvning murakkab strukturasi ochib berilgan. Mirobona solig'i tizimi va suvdan foydalanishdagi ijtimoiy-iqtisodiy adolat prinsiplari maqolaning asosiy mazmunini tashkil qiladi.

Kalit so'zlar: suv taqsimoti, Mirobler, Amir Nasrulloxon, sug'orma dehqonchilik, suv inshootlari, mirobona solig'i, Buxoro amirligi, XIX asr agrar boshqaruvi.

ВЗГЛЯД НА РАСПРЕДЕЛЕНИЕ ВОДЫ В ЭМИРАТЕ И ДЕЯТЕЛЬНОСТЬ МИРАБОВ ВО ВРЕМЯ ПРАВЛЕНИЯ ЭМИРА БУХАРЫ НАСРУЛЛЫ-ХАНА

АННОТАЦИЯ

В статье на основе исторических источников рассматривается система распределения воды и деятельность института мираба в Бухарском эмирате в период правления Амира Насруллы-хана. В эмирате, который в XIX веке был аграрным обществом, основой сельского хозяйства были гидротехнические сооружения. Подробно анализируется эффективное распределение водных ресурсов и важная роль мирабов в этом процессе, их полномочия и обязанности.

В исследовании использованы исторический, описательный, аналитический и сравнительный методы для выявления сложной структуры аграрного управления в эмирате, основанной на системе эксплуатации водных сооружений и порядке использования воды. Основное содержание статьи составляют система налогообложения пожертвований и принципы социально-экономической справедливости в водопользовании.

Ключевые слова: распределение воды, мирабы, Амир Насруллохан, орошающее земледелие, водные сооружения, налог мирабона, Бухарский эмират, аграрное управление XIX века.

A LOOK AT THE DISTRIBUTION OF WATER IN THE EMIRATE AND THE ACTIVITIES OF MIRABS DURING THE ERA OF THE AMIR OF BUKHARA, NASRULLAH KHAN

ABSTRACT

This article examines the water distribution system and the activities of the mirab institution in the Bukhara emirate during the reign of Amir Nasrullah Khan based on historical sources. In the emirate, which was an agrarian society in the 19th century, water structures were the basis of agriculture. The effective distribution of water resources and the important role of mirabs in this process, their powers and responsibilities are analyzed in detail.

The study uses historical, descriptive, analytical and comparative methods to reveal the complex structure of agrarian management in the emirate based on the system of operation of water structures and the procedure for using water. The mirabon tax system and the principles of socio-economic justice in water use constitute the main content of the article.

Keywords: water distribution, Mirabs, Amir Nasrullohan, irrigated agriculture, water structures, mirabona tax, Bukhara Emirate, 19th century agrarian administration.

KIRISH

XIX asrda Buxoro amirligi agrar davlat bo‘lib, uning iqtisodiy hayoti asosan sug‘orma dehqonchilikka tayangan. Suv resurslariningadolatli taqsimoti va samarali boshqaruvi amirlikning barqaror rivojlanishida muhim omil bo‘lgan. Bu jarayonda miroblar — suv taqsimoti va sug‘orish tizimining boshqaruvida markaziy rol o‘ynagan. Akbar Zamonov va Alisher Egamberdiyev – “Buxoro amirligi tarixi (XVIII asr o‘rtalari – XIX asr o‘rtalari)”

Ushbu uslubiy qo‘llanmada Buxoro amirligining siyosiy, ijtimoiy-iqtisodiy hayoti, shu jumladan, qishloq xo‘jaligi va sun’iy sug‘orish tizimi haqida ma’lumotlar keltirilgan. Ayniqsa, “Qishloq xo‘jaligi: sun’iy sug‘orish tizimi, dehqonchilik va chorvachilik” bo‘limida suv taqsimoti va miroblar faoliyati haqida ma’lumotlar mavjud.

Shukurillayev Y.A. – “Buxoro amirligida qo’shin va harbiy ishlari (1756–1920-yillar)”

Ushbu dissertatsiyada Buxoro amirligining harbiy islohotlari va harbiy tizimi haqida batafsil ma'lumotlar berilgan. Garchi asosiy e’tibor harbiy sohalarga qaratilgan bo’lsa-da, davlat boshqaruvi va infratuzilmasi, shu jumladan, suv resurslarini boshqarish masalalari ham yoritilgan.

Shodiyev J.M. – “Buxoro amirligining tashkil topishi va davlat tuzumi”

Bu yuridik fanlari nomzodi dissertatsiyasida Buxoro amirligining davlat boshqaruvi tizimi, ma’muriy tuzilishi va davlat muassasalari haqida ma'lumotlar mavjud. Suv taqsimoti va miroblar faoliyati kabi masalalar ham davlat boshqaruvi doirasida ko‘rib chiqilgan. Yuqorida olimlarning ilmiy ishlarini e’tirof etgan holda biz quyida Buxoro amirligida xususan Amir Nasrulloxon davrida miroblar faoliyati, qishloq xo‘jaligida sug‘orish inshootlarining o‘rni haqidagi fikrlarimizni bayon etamiz.

Amir Nasrulloxon (1827–1860) hukmronligi davrida suv inshootlari va taqsimot tizimining takomillashuvi kuzatilgan. Ushbu maqola yozishda tarixiy-analitik tadqiqot metodlaridan kompleks tarzda foydalanildi. Asosiy metodlar quyidagilardan iborat:

Tarixiy yondashuv – XIX asr Buxoro amirligi ijtimoiy-iqtisodiy hayotini o‘rganishda tarixiy manbalar — arxiv hujjatlari, amirlik farmonlari va zamonaviy tarixchilarining izlanishlariga tayangan holda suv taqsimoti tizimi tarixiy kontekstda tahlil qilindi.

Tavsifiy (deskriptiv) metod – suv inshootlari (charxpalak, chig‘ir, dimlovchi inshoot, kanallar, o‘zan rostlash inshootlari) va miroblar faoliyati izchil ravishda tasvirlab berildi. Har bir inshootning texnik va ijtimoiy funksiyalari alohida ko‘rib chiqildi.

Tahliliy metod – tarixiy hujjatlar va zamonaviy tadqiqotlar asosida suv taqsimoti amaliyoti va mirobona solig‘i tizimi tahlil qilindi. Mavjud jadval va ma'lumotlar orqali suv taqsimotining mintaqaviy xususiyatlari aniqlandi.

Solishtirma tahlil (komparativ metod) – Amir Nasrulloxon davrida amalgalashirilgan islohotlar ilgari mavjud bo‘lgan suv boshqaruvi bilan solishtirilib, yangiliklar va o‘zgarishlar aniqlab berildi.

Vizual metod – tadqiqotda xaritalar, rasmlar va diagrammalardan foydalanildi. Bu esa tarixiy tafsilotlarning aniqroq yoritilishiga yordam berdi.

Huquqiy-huquqiy tahlil elementi – miroblar faoliyatining shar’iy va urfatlarga asoslangan tartibga solinishi, soliq yig‘imlari (mirobona) huquqiy jihatdan qanday amalgalashirilgani ko‘rib chiqildi.

Asosiy qism

Buxoro amirligida suv taqsimoti quyidagi asosiy tamoyillarga asoslangan:


Asosiy suv manbalari: Zarafshon daryosi va uning irmoqlari.



Suv inshootlari:

Charxpalak: Bu qurilma daryo yoki ariq oqimidan foydalanib, suvni yuqoriga chiqarish uchun ishlatalgan. Charxpalaklar yog‘ochdan yasalgan bo‘lib, suv oqimi bilan harakatga kelgan.

Chig‘ir: Bu qurilma yordamida quduqlardan yoki daryolardan suv chiqarilgan. Chig‘irlar odatda hayvonlar yoki odamlar tomonidan aylantirilgan.




Kanallar: Sug‘orish tizimining asosiy qismini tashkil etgan. Kanallar orqali suv ekin maydonlariga yetkazilgan.



Dimlovchi

inshootlar: Suv sathini rostlab turish uchun qurilgan. Bu inshootlar suv toshqinlarining oldini olish va suvni kerakli joylarga yetkazish uchun muhim bo‘lgan. Shu bilan birga ariqlar, hovuzlar va sardobalar.



suvni to‘plab, kerakli vaqtida chiqarishga imkon bergen.

O‘zan rostlash inshootlari: Daryo o‘zanlarini boshqarish va suv oqimini yo‘naltirish uchun ishlatalgan.

Bu inshootlar suv toshqinlarining oldini olish va suvni kerakli joylarga yetkazish uchun muhim bo‘lgan. Shu bilan birga ariqlar, hovuzlar va sardobalar.

Taqsimot tartibi: Suv haftalik navbat asosida taqsimlangan.

1-jadval. Suv taqsimoti haftalik jadvali

N/R	Hafta kuni	Suv oluvchi hududlar
1	Dushanba	Buxoro shahri
2	Seshanba	Kogon va atrofiy qishloqlar
3	Chorshanba	G‘ijduvon tumani
4	Payshanba	Vobkent va Romitan
5	Juma	Qorako‘l va Olot
6	Shanba	Shofirkon va Peshku
7	Yakshanba	Zaxira va ta’mirlash ishlari

Miroblar suv taqsimoti va sug‘orish tizimining boshqaruvchilari bo‘lib, ularning asosiy vazifalari quyidagilardan iborat bo‘lgan: Suv navbatini belgilash va nazorat qilish, sug‘orish inshootlarini ta‘mirlash va saqlash, suvdan foydalanish bo‘yicha nizolarni hal etish.

Amirlikdagi shar’iy va urf-odatga asoslangan qonunlar hamda amir yoki bek tomonidan rasmiy tasdiqlangan, miroblar faoliyati uchun maxsus soliq — mirobona joriy etilgan bo‘lib, bu suv inshootlarini saqlash va miroblarning faoliyatini moliyalashtirish uchun yig‘ilgan maxsus mahalliy soliq shakli bo‘lgan. Bu soliqni Sug‘orma dehqonchilik bilan shug‘ullanuvchi yer egalari va ijarachilar; Ba’zan suvni tijorat maqsadida ishlatgan hunarmandlar va bog‘bonlar ham to‘lashgan. To‘lovlarini Pulsiz davrda: Asosan hosil hisobidan yoki natura (bug‘doy, arpa, paxta) tarzida. Kuchli sug‘orish infratuzilmasi bo‘lgan joylarda: aniq miqdorda pul ko‘rinishida ham to‘langan.

Amir Nasrulloxon davrida miribona soliq stavkasi: har bir yer birligiga nisbatan (masalan, tanobga, qopga hosilga) belgilangan, qishloq yoki tuman miqyosida mirob

tomonidan aniq tartib asosida yig‘ilgan, suv ta‘minotida ustuvorlik — ko‘p miqdor suv olganlar ko‘proq mirobona to‘lagan.

Amir Nasrullohxon davrida suv inshootlariga katta e’tibor qaratilgan. Yangi kanallar qurilib, mavjud ariqlar ta‘mirlangan. Bu ishlar dehqonchilikning rivojlanishiga xizmat qilgan.



XIX asrda Buxoro amirligidagi suv

inshootlari

Suv taqsimoti va miroblar faoliyati Buxoro amirligining agrar tizimida muhim o‘rin tutgan. Miroblar nafaqat texnik boshqaruvchilar, balki ijtimoiy nizolarni hal etuvchi hakamlar sifatida ham faoliyat yuritganlar. Ularning faoliyati amirlikning ijtimoiy-iqtisodiy barqarorligiga xizmat qilgan.

XULOSA

Amir Nasrullohxon davrida suv taqsimoti tizimi va miroblar faoliyati samarali tashkil etilgan bo‘lib, bu amirlikning agrar rivojlanishiga ijobiy ta’sir ko‘rsatgan. Miroblar suv resurslariningadolatli taqsimlanishini ta‘minlab, dehqonchilikning barqarorligini saqlashda muhim rol o‘ynaganlar.

ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. Zamonov A. *Buxoro tarixi* (Scribd.com, 2023)
2. Erquziyev A. *Buxoro xonligi agrar siyosati*, 2017
3. M. Azimjonov. “O‘rta asrda suv boshqaruvi tizimi”, *Tarix va Miras*, №2, 2019
4. Yavmutov D. S., Yuldasheva B. M. ISSUES OF ASSESSMENT OF THE NATURAL RESOURCE POTENTIAL OF THE REGION FOR RECREATIONAL PURPOSES //Modern Science and Research. – 2025. – T. 4. – №. 2. – C. 77-86.
5. Yuldasheva B. M. Somoniylar VA Qoraxoniylar Davrida Buxoro Shahar Madaniyatining Rivojlanishi Va Atrof-Muhitga Munosabat //Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences. – 2022. – T. 2. – №. 3. – C. 1307-1313.
6. Юлдошева Б. М. ПАХТА МОНОПОЛИЯСИНинг БУХОРО ШАҲАР АТРОФ МУҲИТИГА ТАҶСИРИ (XX АСР ДАВОМИДА): Юлдошева Бибираҳаб Миржоновна, Бухоро давлат университети таянч докторанти //Образование и инновационные исследования международный научно-методический журнал. – 2022. – Т. 5. – С. 46-51.
7. Yuldasheva B. M., qizi Islomova S. J. IX-XIII Asrlarda Movarounnahrning Siyosiy-Tarixiy Geografiyasi //Miasto Przyszlosci. – 2023. – T. 41. – C. 132-135.
8. Юлдошева Б. М. ЭКОЛОГИК МУАММОЛАР: ХАЛҚАРО ҲАМЖАМИЯТ МУНОСАБАТИ ВА ТАРИХИЙ ЁНДАШУВ: Юлдошева Бибираҳаб Миржоновна Бухоро давлат университети докторанти //Образование и инновационные исследования международный научно-методический журнал. – 2021. – Т. 5.
9. Mirjonovna Y. B. Question About the Environment: Has the Historian Studied the Environmental Problem? //Academicia Globe. – 2021. – Т. 2. – №. 01. – С. 10-17.